

## IXTIYORIY SUG'URTA

Jumayev Dilshod

*Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Fuqarolik huquqida qo'llaniladigan sug'urta faoliyati tushunchasi hamda turlari va jahonda qo'llanilishiga bag'ishlandi.*

**Kirish so'zlar:** *Sug'urta, majburiy, ixtiyoriy, Madad sug'urta agentligi, zarar, moddiy javobgarlik*

Sug'urta bu tabiiy ofatlar zilzila, suv toshqini, yog'in va har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda boshqa pul qoplamalari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Sug'urta ko'p asrlik tarixga ega. Sug'urta muassasalari dastlab o'rta asrlarda, dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavfxatarlar bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. Keyinchalik boshqa sohalarga g'am yoyildi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida sug'urta fuqarolarning manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi vosita hisoblangan. Sug'urta-jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan pul mukofotlari fondi xisobidan, muayyan sug'urta xodisasi yuzaga kelganda ularning mulkiy manfaatlarini himoya qilish tushuniladi. Sug'urta ikki tarmoqqa bo'linadi.

Birinchisi-umumiy sug'urta tarmog'i. Ikkinchisi- hayot sug'urta tarmog'i. Umumiy sug'urta tarmog'i to'rtta turga bo'linadi. Bular; shaxsiy, mulkiy, javobgarlik va majburiy sug'urta turlaridir. Shaxsiy sug'urta jamg'armasi milliy iqtisodiyot xazina jamg'armasining muhim va o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi, milliy iqtisodiyotni turli tasodiflardan moliyaviy himoya qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta ishi nihoyatda taraqqiy etgan bo'lib, bu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sug'urta badal (mukofot)lari hajmi o'rtacha 8—12 % ni tashkil etadi. Sug'urta qilinadigan ob'yektga qarab mulkiy sug'urta (mas, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlari, binolar, ekinlar, uy hayvonlari, molmulk, transport vositalarini sug'urtalash), shaxsiy sug'urta (inson, sog'lig'i, hayoti, mehnat qobiliyatini sug'urtalash), uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik sug'urtasi (transport egalari fuqarolik javobgarligini, kredit oluvchilarning bank oldidagi kreditni o'z vaqtida qaytarish javobgarligini sug'urtalash va boshqalar)ga bo'linadi.

Sug'urta tartibi va shartlari, turlari, ob'yektlari mamlakatdagi qonunchilik bilan belgilanadi. Mustaqillikka erishguniga qadar 1918—91 yillarda O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini sobiq Ittifoq miqyosida yagona bo'lgan davlat sug'urta idorasi („Gosstrax“) va uning ittifoqdosh respublikalardagi boshqarmalari amalga oshirgan. 1991-yildan O'zRda o'tkazilgan chuqur iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida davlat S organlari qayta tashkil etildi, ularga raqobatda bo'la oladigan turli mulkchilik shaklida sug'urta kompaniyalari va agentliklari vujudga keldi. Sug'urta xizmati bozori, sug'urta faoliyatining asosiy yo'nalishlari, huquqiy-qonunchilik asoslari yaratildi.

1993-yilda 6 mayda O'zbekiston Respublikasining „Sug'urta to'g'risida“ qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25 fevraldagi farmoniga ko'ra Moliya vazirligi huzurida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Davlat sug'urta bosh boshqarmasi „O'zagrosug'urta“ sug'urta kompaniyasi shaklida qayta tashkil etildi, „Kafolat“ sug'urta kompaniyasi, „Madad“ sug'urta agentligi, „O'zbekinvest“ eksportimport milliy sug'urta kompaniyasi va boshqa o'z faoliyatini boshladi. Sug'urtalash majburiy va ixtiyoriy shakllarda amalga oshiriladi. Majburiy sug'urtaning o'zi majburiy va majburiy davlat

sug'urtasiga bo'linadi. Ularning har ikkalasi ham qonunchilik hujjatlariga muvofiq joriy etiladi. O'zbekistonda umumiy foydalanishdagi avtomobil transporta, suv, havo, temir yo'l transportlari yo'lovchilari, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi va boshqalarga majburiy sug'urta turlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat chegaralarini qo'riqlash, Davlat bojxona, Davlat soliq qo'mitalari xodimlari majburiy davlat sug'urtasiga olingan va bunday sug'urta turlari uchun sug'urta badali (mukofoti) davlat byudjeti hisobidan to'lanadi. Ixtiyoriy sug'urta turlari sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning o'zaro roziligi va yozma shartnoma asosida amalga oshiriladi, sug'urta javobgarligi hajmi (sug'urta narxi), sug'urta badali (mukofoti) miqdori, sug'urta hodisasi yuz berganda to'lanadigan sug'urta puli (sug'urta qoplamasi, to'voni) summasi — shartnoma shartlari sug'urta qiluvchi bilan sug'urta qilinuvchi tomonlar o'rtasida kelishiladi.

O'zbekiston Respublikasida jami sug'urta kompaniyalarining sug'urta javobgarligi 3,25 trln. so'mni, yig'ilgan badallar (mukofotlar) tushumlari summasi 21,7 mlrd. so'mni, to'langan sug'urta puli (koplamalari) summasi 2,4 mlrd. so'mni tashkil etadi; sug'urta to'lovlarining umumiy tuzilmasida molmulk sug'urtasi 70 %, shaxsiy sug'urta 6,2 %, javobgarlik sug'urtasi 5 % dan iborat bo'ldi (2002). 2004-yilda O'zbekistonda 20 dan ortiq, shu jumladan 10 ta yirik davlataksiyadorlik, nodavlat sug'urta kompaniyalari faoliyat kursatadi. Sug'urtaning ixtiyoriy sug'urta turi bu Tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta ixtiyoriy sug'urta hisoblanadi. Ixtiyoriy sug'urtaning shartlari tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining huquqlari hamda burchlari, shuningdek, har bir sug'urta turining aniq shartlari tegishli sug'urta shartnomalari bilan belgilab qo'yiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. "Sug'urta to'g'risidagi qonun" 28.05.2002
3. Topildiyev.: T-TOSHKENT. 670-140-betlar
4. <https://lex.uz/acts/-106047>